The Pedagogical and Psychological Essence of Forming and Developing the Deontological Competence of Future Teachers in the Higher Education System

Yoqubova Maftuna Shoyim qizi
Doctoral Researcher, Bukhara State University
myoqubova.@gmail.com

Abstract

This article examines the pedagogical and psychological essence of forming and developing the deontological competence of future teachers in the higher education system. It also analyzes the content of pedagogical deontology and the importance of ethical standards, professional responsibility, pedagogical duty, moral principles, and humanistic qualities in teachers' professional activities. The pedagogical conditions and psychological factors involved in developing deontological competence among future teachers, as well as its role in establishing effective pedagogical relationships throughout the teaching and educational process, are substantiated. In addition, recommendations are proposed for improving the professional and ethical preparation of future teachers in higher education institutions.

Keywords

deontology, deontological competence, future teacher, pedagogical deontology, professional ethics, pedagogical duty, professional responsibility, ethical standards, pedagogical culture, pedagogical and psychological factors, higher education, professional training.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning deontologik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik mohiyati

Yoqubova Maftuna Shoyim qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

myoqubova.@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik mohiyati yoritilgan. Shuningdek, pedagogik deontologiyaning mazmuni, o‘qituvchi kasbiy faoliyatida axloqiy me’yorlar, kasbiy mas’uliyat, pedagogik burch, odob-axloq tamoyillari va insonparvarlik fazilatlarining ahamiyati tahlil qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, psixologik omillari hamda ta’lim-tarbiya jarayonida samarali pedagogik munosabatlarni qaror toptirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-axloqiy tayyorgarligini takomillashtirishga doir tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: deontologiya, deontologik kompetensiya, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik deontologiya, kasbiy etika, pedagogik burch, kasbiy mas’uliyat, axloqiy me’yorlar, pedagogik madaniyat, pedagogik-psixologik omillar, oliy ta’lim, kasbiy tayyorgarlik.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan, yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega, mustaqil fikrlaydigan hamda kasbiy faoliyatida axloqiy-me’yoriy talablarga rioya qiladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida mazkur talab yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi nafaqat muayyan bilimlarni o‘rgatuvchi mutaxassis, balki ta’lim oluvchining shaxsiyati, dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi subyekt hisoblanadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini uning faqat predmetga oid bilim va metodik ko‘nikmalari bilan chegaralash yetarli emas. Pedagogning kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan burch, mas’uliyat, adolat, insonparvarlik, pedagogik odob, kasbiy

halollik va ta’lim oluvchi shaxsiga hurmat kabi sifatlarni shakllantirish ham oliy ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur jarayonni ilmiy jihatdan asoslashda “deontologiya” tushunchasining mazmun-mohiyatiga murojaat qilish zarur. Deontologiya atamasi yunoncha “deon” – burch, majburiyat va “logos” – ta’limot, fan ma’nolarini anglatib, muayyan kasbiy faoliyatda amal qilinishi lozim bo‘lgan axloqiy-me’yoriy talablarni ifodalaydi. Pedagogik faoliyat nuqtayi nazaridan esa deontologiya o‘qituvchining kasbiy burchi, mas’uliyati, pedagogik odobi, ta’lim oluvchilar bilan munosabatlarida amal qilishi lozim bo‘lgan axloqiy tamoyillar hamda kasbiy xulq-atvor me’yorlarini o‘z ichiga oladi. Demak, pedagogik deontologiya o‘qituvchi faoliyatining “qanday bilimga ega bo‘lishi kerak?” degan savolidan tashqari, “o‘z bilim va imkoniyatlarini qanday axloqiy-me’yoriy asosda qo‘llashi kerak?” degan masalani ham qamrab oladi.

O‘qituvchilik kasbining insonparvarlik xususiyati uning faoliyatida deontologik talablarning alohida o‘rin tutishini belgilaydi. Chunki pedagogning har bir qarori, munosabati, baholashi yoki muloqot shakli ta’lim oluvchining shaxsiy rivojlanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik faoliyatda kasbiy bilimning mavjudligi o‘z-o‘zidan uning samarali va axloqiy jihatdan maqbul amalga oshirilishini kafolatlamaydi. Bilimni qo‘llash jarayonida kasbiy burchni anglash, mas’uliyatni his qilish, pedagogik vaziyatni axloqiy jihatdan baholash va maqbul xatti-harakatni tanlay olish qobiliyati ham talab etiladi. Mazkur jihatlar bo‘lajak o‘qituvchining deontologik kompetensiyasini belgilovchi muhim omillar sifatida qaraladi.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” kategoriyalarining zamonaviy pedagogik tadqiqotlardagi talqini deontologik kompetensiyaning mohiyatini aniqlashtirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Kompetensiya muayyan faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba, munosabat va

shaxsiy sifatlar majmuini ifodalasa, kompetentlik mazkur imkoniyatlarning real faoliyat jarayonida namoyon bo‘lish darajasini anglatadi. Shundan kelib chiqib, deontologik kompetensiyani pedagogik faoliyatning axloqiy-me’yoriy talablarini bilish bilangina bog‘lash bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Uning mazmuni ushbu bilimlarni kasbiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, muayyan pedagogik vaziyatda axloqiy jihatdan asoslangan qaror qabul qilish va qabul qilingan qarorni tegishli xulq-atvor orqali namoyon etishni ham nazarda tutadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining deontologik kompetensiyasi uning kasbiy faoliyatida amal qilishi lozim bo‘lgan me’yor va qoidalarni o‘zlashtirish, ularning mazmunini anglash, kasbiy burch va mas’uliyatni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilish hamda mazkur qadriyatlarni amaliy pedagogik faoliyatda namoyon eta olish imkoniyatini ifodalovchi integrativ shaxsiy-kasbiy sifat sifatida qaralishi mumkin. Bunda deontologik kompetensiyaning shakllanishi tashqi me’yorlarning mexanik tarzda o‘zlashtirilishi emas, balki ularning talaba shaxsining ichki e’tiqodi va kasbiy pozitsiyasiga aylanish jarayonini anglatadi.

Deontologik kompetensiyaning integrativ xarakteri uning tarkibida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta komponentlarning mavjudligini taqozo etadi. Mazkur komponentlarni motivatsion-qadriyatli, kognitiv, emotsional-irodaviy, faoliyatli-xulqiy va refleksiv komponentlar sifatida tizimlashtirish mumkin.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik kasbga munosabati, kasbiy burchni anglash darajasi, pedagogik qadriyatlarni qabul qilishi, insonparvarlik, adolat, halollik, mas’uliyat va hurmat kabi qadriyatlarga tayanishini ifodalaydi. Ushbu komponentning shakllanganligi talabaning pedagoglik faoliyatini faqat kasbiy vazifa sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyatni talab qiluvchi faoliyat sifatida qabul qilishi bilan belgilanadi.

Kognitiv komponent deontologik mazmundagi bilimlarning mavjudligini ifodalaydi. Bunga pedagogik etika, kasbiy burch va mas'uliyat, pedagogik muloqot madaniyati, ta'lim oluvchining huquq va manfaatlarini hurmat qilish, kasbiy xulq-atvor me'yorlari hamda pedagogik vaziyatlarda axloqiy qaror qabul qilishga oid bilimlar kiradi. Biroq mazkur bilimlarning mavjudligi deontologik kompetensiyaning to‘liq shakllanganligini anglatmaydi. Ular amaliy faoliyat va shaxsiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgandagina kompetensiyaviy xarakter kasb etadi.

Emotsional-irodaviy komponent pedagogning murakkab pedagogik vaziyatlarda o‘z hissiy holatini boshqarishi, sabr-toqatli bo‘lishi, ta'lim oluvchining holatini tushunishi, empatiya ko‘rsatishi va kasbiy me'yorlardan chetga chiqmasligini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatda turli nizoli yoki stressli vaziyatlarning yuzaga kelishi tabiiy holat bo‘lganligi sababli bo‘lajak o‘qituvchining emotsional barqarorligi va o‘zini boshqara olish qobiliyati deontologik xulq-atvorning muhim psixologik sharti hisoblanadi.

Faoliyatli-xulqiy komponent deontologik bilim va qadriyatlarning real pedagogik faoliyatda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Mazkur komponent doirasida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik vaziyatni tahlil qilishi, axloqiy jihatdan maqbul qaror qabul qilishi, ta'lim oluvchilar bilan hurmatga asoslangan munosabat o‘rnatishi, kasbiy majburiyatlarini mas'uliyat bilan bajarishi va pedagogik odob me'yorlariga amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv komponent esa bo‘lajak pedagogning o‘z kasbiy faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qila olishi, o‘zining kuchli va zaif jihatlarini anglash, yo‘l qo‘yilgan xatolardan tegishli xulosa chiqarish hamda kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash qobiliyatini ifodalaydi. Aynan refleksiya orqali tashqi deontologik talablar shaxsning ichki nazorati va o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmiga aylanadi.

Shunday qilib, deontologik kompetensiyaning pedagogik-psixologik mohiyatini aniqlashda uning ikki tomonlama tabiatiga e’tibor qaratish lozim. Bir tomondan, u pedagogik faoliyatga qo‘yiladigan obyektiv axloqiy-me’yoriy talablarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ikkinchi tomondan esa ushbu talablarning bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlari, qadriyatlari, motivlari, e’tiqodi va xulq-atvorida subyektiv tarzda o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Demak, deontologik kompetensiya tashqi me’yorlar bilan ichki kasbiy pozitsiyaning integratsiyasi natijasida shakllanadi.

Oliy ta’lim muassasasida deontologik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni ham mazkur ikki jihatning uyg‘unligini ta’minlashi lozim. Buning uchun ta’lim mazmuniga pedagogik etika va deontologik me’yorlarni singdirish bilan bir qatorda, talabalarda kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, axloqiy qaror qabul qilish, o‘z xatti-harakatlarini baholash va refleksiv faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Ayniqsa, muammoli pedagogik vaziyatlar, keyslar, rolli o‘yinlar, munozaralar, pedagogik amaliyot va refleksiv topshiriqlardan foydalanish deontologik bilimlarning amaliy faoliyat bilan bog‘lanishiga imkon beradi.